Nazrul singari shoirlar bizga faqat she’r emas, yo‘l ko‘rsatadi. O‘zbek adabiyotida ham Cho‘lpon, Usmon Nosir singari ijodkorlar xuddi shu yo‘lda borishgan – ular ham adabiyot orqali xalq ruhiga ozodlik tuyg‘usini singdirgan. Demak, bu yo‘l – doimiy, hech qachon yo‘qolmaydigan yo‘l.

- **Xulosa**

Adabiyot – bu inson qalbining eng chuqur joylariga kiradigan yagona kuch. U so‘z vositasida ongimizni uyg‘otadi, yuragimizga hayot tomchilarini soladi. Kazi Nazrul Islom – adabiyot orqali ozodlik, jasorat, insoniylik g‘oyalarini targ‘ib etgan buyuk shoir. Uning ijodi bugun ham yosh avlodga yo‘l ko‘rsatmoqda.

Adabiyot bor joyda ruhiy tiriklik bor. Adabiyot bor joyda jamiyat o‘zgaradi. Demak, uni qadrlash, tushunish va yurak bilan his qilish – eng katta boyligimizdir.

- **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Nazrul Islam, Kazi. *Selected Poems*. Dhaka University Press, 2001.
2. Karimov A. *Adabiyot nazariyasi asoslari*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2020.
3. Akhter, Nasrin. “The Revolutionary Voice of Kazi Nazrul Islam.” *International Journal of Literature and Arts*, 2018.
4. Sayfiyev S. *Zamonaviy o‘zbek adabiyoti*. Toshkent, 2018.

YURTIMIZ MATBUOT SOHASINING RIVOJIDA JADIDLARNING AHAMIYATI

Ergasheva Marjona Xidir qizi
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti
Tarix yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yurtimizning matbuot sohasi rivojida jadid harakatining ahamiyati haqida ma’lumotlar mavjud. Jadidchilik harakati XX asr boshlarida musulmon dunyosida, xususan, Turkiston o‘lkasida yuzaga kelgan ma'rifatparvarlik va islohotlar harakati bo‘lib, u yangi maktablar ochish, ilm-fan, madaniyat, adabiyot va matbuot orqali xalqni uyg‘otishni maqsad qilgan edi.*

Kalit so‘zlar: *Axborot, matbuot, jadidchilik, gazeta, jurnal, "Taraqqiy", "Shuhrat", "Sadoi Turkiston", "Hurriyat", maqola.*

Jamiyatda axborotning o‘rni nihoyatda katta hisoblanadi. Axborot – bu to‘g‘ri va tez qarorlar qabul qilish uchun zarur asosdir. Har qanday sohada – siyosat, iqtisod, ta’lim yoki tibbiyotda – dolzarb va ishonchli ma’lumotlar qarorlar sifatini belgilaydi. Shuningdek, fan, texnika, va

ijtimoiy taraqqiyotning asosi bu – to‘plangan, tahlil qilingan va baham ko‘rilgan axborotdir. Yangi texnologiyalar, ilmiy kashfiyotlar – barchasi axborot almashinuvi natijasidir.

Aynan axborot matbuot orqali yetkaziladi. Matbuot jamiyat a’zolarini dolzarb voqealar, yangiliklar, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar haqida tezkor va ishonchli axborot bilan ta’minlaydi. Bu fuqarolarning ongli qarorlar qabul qilishiga yordam beradi.

Matbuot — barcha bosma mahsulotlar majmui tor ma’noda davriy nashrlar, asosan, gazeta va jurnallarni ifodalaydi(sinonimi – pressa). Matbuot ijtimoiy ongning o‘tkir va ta’sirchan vositasi sifatida kishilik jamiyatiga doimiy va faol ta’sir ko‘rsatadi, jamoatchilik fikrini shakllantiradi, omma ongiga muayyan qarashlarni singdirishda qudratli g‘oyaviy omil hisoblanadi. Matbuot jamiyat hayotini turli (ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ishlab chiqarish, ilmiytexnikaviy va boshqalar) yo‘nalishlarda yoritadi.[65]

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida jamiyatning barcha sohalarida chuqur inqiroz yuzaga kelgan edi. Mustamlakachilik siyosati natijasida xalq o‘rtasida savodsizlik, ijtimoiy tengsizlik, madaniyatsizlik va jaholat avj olgan edi. Ana shunday sharoitda xalqni uyg‘otish, ilm-fan, madaniyat va ijtimoiy hayotni rivojlantirish maqsadida jadidchilik harakati vujudga keldi. Bu harakat Turkiston tarixida muhim burilish yasab, milliy uyg‘onishning poydevorini yaratdi.

"Jadidchilik" atamasi arab tilidagi "jadid" – ya’ni "yangi" so‘zidan olingan bo‘lib, u o‘zgarish, islohot va yangilanish g‘oyalarini anglatadi. Jadidchilik harakati ma’rifatparvarlik asosida shakllangan bo‘lib, uning vakillari jamiyatni zamonaviy fan, ta’lim va dunyoviy bilimlar orqali rivojlantirishni maqsad qilganlar.[66]

Jadidchilik harakati yangi maktablar ochish, ilm-fan, madaniyat, adabiyot va matbuot orqali xalqni uyg‘otishni maqsad qilgan edi. Gazetalar, jurnallar chiqarish orqali xalqni zamonaviy dunyoqarashga yo‘naltirish jadidlar faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan bo‘ldi. Turkiston jadidlarning gazetasi „Taraqqiy“ ning ilk soni 1906-yil 14-iyun sanasi bilan „Najot: maslakda sabot; to‘g‘rilikni ijobat“ shiori bilan dunyo yuzini ko‘rgan. „Turkiston 12-avgust“[67] maqolasida muharrir Turkistoning shonli tarixidan gap boshlagan.

Jadidchilik harakati bilan birga, o‘zbek matbuoti ham yangi bosqichga ko‘tarildi. Quyidagi gazeta va jurnallar bu harakatning asosiy tribunasiga aylangan:

"Taraqqiy" (1906) – Mahmudxo‘ja Behbudiy asos solgan bu gazeta o‘zbek tilida chiqqan birinchi ijtimoiy-siyosiy gazetalardan biridir.

"Shuhrat", "Sadoi Turkiston", "Hurriyat" va boshqalar – bu nashrlar orqali jadid ziyolilari ma’rifat, taraqqiyot, adolat, millatparvarlik g‘oyalarini targ‘ib etdilar.

XIX asrning insoniyat boshiga ko‘plab tashvishlar keltirgani, ojiz millatlarning imperialistik zulm ostida qolgani yozilgan.1917-yilning mart oyidan „Sho‘roi Islom“ nashri afkori bo‘lgan

[65] O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
[66] https://oyina.uz/uz/teahause/1172.
[67] Tarqqiy. _ 1906. _12-avgust. _ 17-son.

„Najot“ gazeta chiqa boshlagan. Shiori „Musavvat, hurriyat, adolat“ bo‘gan gazeta o‘zbek, tatar, qozoq va qirg‘izlarga „vatandosh“, „millatdosh“ deb xitob qilgan. Nashr muharriri Munavvar qori Abdurashidxonov bo‘lgan. Gazeta barcha Turkiston xalqini sinfiy ayrimga bormasdan yagona ittifoqqa birlashishga chaqirgan. Salohiddin Muftizoda „Sukut qiling! Sohibi sarvatlarning nidosi“ maqolasida bozorlarni arzonlashtirish, xalqning eng zaruriy muammolarini zudlik bilan hal etishga chaqirgan.1917-yil 25-iyun sanasi bilan „Najot“ ning o‘rniga „Kengash“ gazetasi chiqa boshlagan. Turkiston jadidlarining yana bir mashhur gazetalaridan biri Samarqanda chop etilgan „Hurriyat“ dir. Unga muharrir Mardanqul Shohmuhammadzoda bo‘lgan. Tatar taraqqiyparvarlarining „Ittifoq“ jamiyati tamonidan nashr qilingan „Ulug‘ Turkiston“ gazetasi 1917-yilning 25-aprelda nashr qilina boshlagan. Qo‘qon shahrida ham „El bayrog‘i“ gazetasi „G‘ayrat“ kutibxonasi qoshida tashkil etilgan matbuotxonada „Yashasin qo‘shma xalq jamhurriyati“ shiori bilan 1917-yil 8-sentabrdan nashr etila boshlagan.[68]

Jadid nashrlarida quyidagi muhim mavzular yoritilgan:

- Savodsizlikka qarshi kurash;
- Ayollar erkinligi va ta'limi;
- Maktab islohoti (yangi usul maktablari);
- Milliy uyg‘onish va o‘zlikni anglash;
- Ilm-fan, texnika va g‘arbiy taraqqiyot yutuqlari.

Jadidlar zamonida matbuotdagi haq so‘zning kundalik hayotga, odamlarga, jamiyatga ta’siri kuchli bo‘ldi. Vaqtli matbuot odamlarning ijtimoiy hayotiga faol aralashmog‘i va dunyodan boxabar bo‘lmog‘i uchun zaruratga aylandi. Boshlab gazetalar oyda bir bora bazo‘r chiqdi; asta-asta haftalik va kunlik nashrlar shiddat bilan odamlar orasiga kirib bordi; sahifalaridagi maqola va ma’lumotlar ma’naviy ehtiyoj tusini oldi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy – "Taraqqiy" gazetasi asoschisi, milliy teatr va matbuotning otalaridan biri.

Abdurauf Fitrat – ilmiy-publitsistik asarlari orqali jadidchilik g‘oyalarini targ‘ib qilgan.

Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Cho‘lpon, Qori Niyoziy – o‘z maqola va asarlari bilan matbuotda faol qatnashgan.

O‘z g‘oyalari, maslaklari targ‘ibi uchun naqadar foydali ekanini chuqur anglagan jadidlar gazetachilik jabhasida sa’y-u harakatdan to‘xtamadi. “Tujjor”, “Osiyo”, “Samarqand”, “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg‘ona”, “Tirik so‘z” kabi gazetalar yonida Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Oyina” jurnali paydo bo‘ldi. 1913-1915 yillarda 68 soni bosildi.

XX asr boshlarida Toshkentda milliy taraqqiyparvar kuchlar bir qancha gazetalar chiqarishga muvaffaq bo‘lganligi o‘lka ijtimoiy hayotida muhim voqea bo‘lgan. 1905-1907 yillardagi inqilobdan vahimaga tushgan hukumat matbuot sohasida ham yon berishga majbur bo‘lgan. Lekin shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, milliy taraqqiyparvar kuchlar chiqargan gazetalar

[68] El bayrog'i. _1917. _ 8-sentyabr. _ 1-son.

“Taraqqiy” (1906 y.), “Xurshid” (1906 y.), “Shuhrat” (1907 y.), “Osiyo” (1908 y.) hukumat tomonidan qattiq ta’qib ostiga olinib, gazetaning har bir sonlaridagi maqolalar tarjima qilinib kuzatib borilgan.[69]

Jadid taraqqiyparvarlari tashkil etgan milliy gazetalarda millatni jaholatdan qutqarish va uning taraqqiy topishiga erishish masalalari diqqat markazida bo‘lgan. Ular milliy ongni o‘stirishga o‘z hissalarini qo‘shganlar. Biz jadidlarning faoliyati davomida ochilgan va faoliyat yuritgan matbuot nashrlarini birma-bir sanar ekanmiz ularning qanchalar murakkab vaziyatlarda faoliyat yuritganini va qanchadan-qancha to‘siq va muammolarga duch kelganligini chuqurroq his qilishga harakat qilmog‘imiz kerak. Jumladan, qattiq siquvga olingan milliy taraqqiyparvar kuchlar uzoq vaqt matbuotga ega bo‘lish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan edilar. Bu haqda milliy taraqqiyparvarlardan biri Rauf Muzaffarzoda shunday deb yozgan: “Bizda “Taraqqiy”dan so‘ng ko‘pgina gazetalar chiqib, oz fursatda yana yopilib qoldi. Agar o‘sha paytda chiqib, so‘ng yopilgan jaridalarni yig‘sak, juda katta jarida mozori hosil bo‘ladi”.[70]

Yuqoridagi to‘siqlarga qaramay jadid matbuoti o‘z davrida keng xalq qatlamlariga ta’sir ko‘rsatgan. Uning asosiy yutug‘i – milliy o‘zlik, madaniyat, ma’rifat va zamonaviy tafakkurni targ‘ib etganidadir. Jadidchilik harakati yurtimiz matbuoti tarixida tub burilish yasadi. U zamonaviy jurnalistika, adabiy tanqid, publitsistika va siyosiy fikr rivojiga asos soldi. Jadidlarning matbuotdagi faoliyati bugungi milliy matbuotning shakllanishida poydevor bo‘lib xizmat qildi.

ADABIYOTLAR:

1. El bayrog'i. _1917. _ 8-sentyabr. _ 1-son.
2. Tarqqiy. _ 1906. _12-avgust. _ 17-son.
3. Рауф Музаффарзода. Бизда зиёлилар ва миллий матбуот, Садои Туркистон. 1914. -№ 44.
4. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
5. ЎзР МДА. 1-жамғарма, 28-рўйхат, 779-иш, 10-20 – бетлар.
6. https://oyina.uz/uz/teahause/1172.

[69] ЎзР МДА. 1-жамғарма, 28-рўйхат, 779-иш, 10-20 – бетлар.

[70] Рауф Музаффарзода. Бизда зиёлилар ва миллий матбуот, Садои Туркистон. 1914. -№ 44.